



WORLD BULLETIN
PUBLISHING

Online Publishing Hub

World Bulletin of Education and Learning (WBEL)

ISSN (E): 3072-175X

Volume 01, Issue 03, December 2025



This article/work is licensed under CC by 4.0 Attribution

<https://worldbulletin.org/index.php/1>

THE BALANCE OF WORDS AND MELODY IN MAQOM SINGING EDUCATION

Tosheva Marjona

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrasida o'qituvchisi

Abstract:

This article discusses the issue of the correlation of words and tones in the singing of maqoms, as well as the opinions of many scientists who have conducted research on this topic.

Keywords: Makam, Nazm and Navo, Duvazda Makam, Alisher Navoi, Jami, song, gazelle, high style, Tajallo, Wajd, Hamza Hakimzada Niyazi, Aruz.

Introduction

Mustaqilligimizning ilk yillaridan milliy ma'naviy merosimizga bo'lgan yuksak e'tibor natijasi o'laroq yurtimizda ushbu sohada salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizni o'rganish, rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

O'zbek xalq og'zaki an'anasidagi kasbiy musiqa asarlarining xalq e'zoziga tushishi, maqom ashulalarining, katta ashulalarning va maqom yo'llaridagi mumtoz asarlarining ijrochilik taomilidan munosib o'rin egallashi bu jarayonga o'zgacha salohiyat baxsh etdi. Bugungi kunda ularni tadqiq etish, pedagogik ta'lim tizimida ularning o'rganilishini o'tmish va bugungi kun misolida tahlil qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Shunigdek, har qanday san'at turi har xil vositalar orqali hayotiy voqelikni aks ettirishga qodir hisoblansa, ohirgi yuz yillik mobaynida o'zbek musiqasining rivojlanishi anchayin murakkab va o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarda kechganini yaqqol tasavvur qilish va uni tadqiq etish ustivor ahamiyat kasb etib bormoqda.

Sir emaski, maqom ta'limotini o'rganish, mazkur muhtasham san'at paydo bo'lgan vaqtdan boshlab takomillashib kelgan. Qolaversa, ushbu san'atning



o'rgatilishi, ta'lim shakllari bugungi kunga qadar taraqqiy etib kelmoqda deyishimiz mumkin.

Maqom ta'limida so'z va ohang mutanosibligi juda katta ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan, ayni chog'da dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ustoz san'atkorlarimiz azal – azaldan bejiz “Nazm va Navo” kechalarini o'tkazib kelishmagan. Maqom asarlarini ijro qilayotgan xonanda aytayotgan ashulasining g'azaliyoti, uning ma'no mazmuni, shaklu – shamoili, qolaversa, ilmiy jihatdan tuzilish qonuniyatlarini bilmog'i darkor.

Musiqqa san'ati ahlining ijodiy faoliyati bilan IX – XII asrlarda vujudga kelgan Duvozdah (O'n ikki) maqom kuyi bu davrda yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'tariladi, takomillashadi va yangi kuylar bilan boyiydi [1, 11]. Demak musiqqa san'ati ham san'atning boshqa turlari va she'riyat bilan uzviy aloqada rivojlandi. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan turli janr va shakllardagi an'anaviy musiqqa namunalari badiiy-ma'naviy merosimizning ajiralmas mulkiga aylangandir. Jumladan, o'zbek mumtoz musiqasining ko'hna va hamisha navqiron ashula, katta ashula, dostonchilik va maqomchilik san'atlari ham asrlar davomida har-xil ko'rinishlarda rivojlandi, taraqqiy etdi. O'zining tarixiy jarayonida turli davr shart-sharoitlari hamda ehtiyojlar taqozosi bilan ular shaklan, usluban va mazmunan tobora o'zgarib borganini qisman tegishli manbalar yordamida kuzatish mumkin.

Mumtoz musiqqa alohida yaratuvchisi, yani bilimdon bastakori tomonidan ijro etiladi. Asosan aruz vazniga xos bo'lgan so'z matnlariga asoslab va muayyan shaklda yaratiladi.

Sharq musiqqa nazariyasini sharhlab beruvchi ko'pgina yozma manbalarda maqomlar tushunchasini, xos belgilarini, ularning ba'zi amaliy tomonlarini anglashga yordam beradigan qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, maqomlarning juda qadimiy tarixi bo'lsa-da, Shashmaqom O'rta Osiyoda yashab kelgan maqom turkumlarining eng so'nggi shaklidir va bundan taxminan ikki asr ilgari (XVIII a.) shakllangan. Turli tushunchalar ifodasi bo'lgan “maqomlar” musiqada lad (parda) uyushmalar ma'nosida keladi. Bu tushuncha turli davrlarda yashab kelgan maqomlarning hamma shakllarida ham o'z mazmunini birdek saqlab keldi.



Shuning uchun Shashmaqomni ham o‘tmishda joriy etilgan “maqom” tushunchasi bilan birgalikda, uning tarixiy shakllanish jarayoni kesimida ko‘rib chiqish alohida ahamiyatga ega.

XIV – XV asrlarda O‘rta Osiyo madaniyati, o‘rta asr adabiyoti va musiqasining eng yuksalgan davri ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) va tojik klassik shoiri va atoqli olimi Abdurahmon Jomiy (1414-1492) yashagan davr edi [3, 56]. Navoiy va Jomiy zamonasidagi musiqa madaniyati va tarixini o‘rganish borasida, musiqa bilan bilvosita bog‘liq bo‘lgan tarixiy, adabiy harakterdagi asarlar ham asosiy manbalar sifatida juda katta ahamiyatga ega. XV asr adabiyoti va musiqasining yodgorliklari qatorida she‘r va devoni bayozlarini ham ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu she‘r to‘plamlaridan musiqachi-bastakorlar maqomlarning ashula yo‘llariga she‘rlar tanlab olishardi. Navoiy va Jomiy zamonida juda ko‘p musiqa nazariyachilari, mohir sozanda va xonandalar hamda bastakorlar, maqomdonlar yetishib chiqqan. Ko‘rib turganimizdek maqomlar ijrosida ohang bilan bir qatorda so‘z tanlashga ham o‘tmish zamonlaridan jiddiy yondashuv bo‘lgan.

O‘zbek mumtoz musiqasining eng mukammal janri bo‘lgan maqomlarning ashula yo‘llari ko‘p asrlar mobaynida o‘tmish klassik shoirlarning g‘azallari bilan aytilib, amaliyotchilar ta‘birida - o‘qilib kelingan. Umuman ashula yo‘llarining o‘ziga xos murakkabligi ham shundaki, ularda so‘z bor, matn bor va ular oddiy so‘zlar emas. Maqom tizimida hofizlar dasturida aytilib yuriladigan, amaldagi she‘rlarning miqdori kuylarnikiga qaraganda ko‘proq bo‘lishi kuzatilgan. Tajribali va albatta bilimli, musiqiy tafakkuri yuqori bo‘lishi bilan birga she‘riyatning aruz tizimini puxta o‘zlashtirgan hofizning yonida bir necha she‘rlar bitilgan bayozlar bo‘ladi. G‘azallarni maqomlarda qo‘llanilishi bejiz emas, albatta. Chunki g‘azallarni ichki rivojlanish tamoyili maqom sho‘balaridagi kuyning kuyi, o‘rta va yuqori bosqichlariga muvofiq keladi. She‘riyatda ham, musiqada ham oliy uslub darajasi qo‘llanilishi bu ikki o‘zanni birikishiga sababdir. “...e’tirof joizki, “oliy uslub” turlari badiiy mazmun jihatidan ham tasavvuf falsafasining “tajallo”, “vajd” kabi markaziy g‘oyalari bilan sug‘orilib, ularning musiqiy in‘ikosiga aylana boradi...”. [4, 25]



Shunday qilib she'riyat va musiqaning bir-biri bilan uzviy bog'liqlik tomonlarini yuqorida aytib o'tdik. Mumtoz musiqa ilmida ham, aynan klassik she'riyat, aruz vazniga katta e'tibor qaratiladi va ilmiy manbalarda bu haqida ma'lumotlar, qarashlar o'z aksini topgan.

Yuqorida aytilganidek, she'riyat va musiqa alohida san'at sifatida yo'l tutib, maqom san'atida ular yana qaytadan birlashadi. Agar she'r – so'zga singdirilgan kuy desak, nazm va navo uyg'unlashgan maqom san'atida yana bir karra ortiq musiqiylik kuchga kiradi. Mukammal ixtisoslashgan maqom san'atida esa bu uyg'unlik yanada yuksak darajada, klassik musiqa va klassik she'riyat tutashuvida namoyon bo'ladi. Unda kuy she'rga, she'r kuyga qo'shimcha qanot bog'lab, chuqur ma'nolar hamda ruhiy holatlarga da'vat etadi.¹ Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, har qanday musiqa yoki musiqa jo'rligida aytilgan so'z yaxshilikka qaratilgan bo'lishi lozim. Bu haqda Qur'oni karim va payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarida aniq va qat'iy ko'rsatmalar bor. Qo'shiq yoki mumtoz ashula ijod etayotgan kishi bunga o'ta jiddiy qarashi maqsadga muvofiqdir. Chunki she'r ham, musiqa ham bir kishi uchun aytilmaydi, balki tom ma'noda ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Shunga ko'ra qo'shiq yoki ashula bilan jamiyatni tuzish ham, buzish ham mumkin. Milliy adabiyot va musiqamizning bilimdoni Hamza Hakimzoda Niyoziyning quyidagi fikrlari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham diqqatga molikdir: *“Quloq, ”nota”lari ila eshitilub kelmish milliy tabarruk ashulalarimizning o'rni yo'qolmasin uchun, ba'zi qabih she'rlar o'rniga milliy she'rlar tartib berub, hamma ohang va kuylarimizni topub, bir necha bo'limda nashr etmak niyatidamiz... Ma'lumki, har bir elning dong'ini saqlagan o'z adabiyotidir. Shul adabiyotni jonlik va eng nafis ko'rsatadigan yeri sahnasidir. Yana shul adabiyotni jon yo'sinida tanasiga o'rnashturaturgan shubhasiz musiqaviy qo'shug'dir. Shul musiqani har yonga javlon etishi uchun har elning o'z shevasida dardli shoiri bilan o'z ohangi yo'sinida qo'shiq chiqaruvchisi (Kompozitor-bastakori)dir”* [3. 98]. Ko'rinadiki, so'z va musiqa uyg'unligida inson kamoloti uchun xizmat qilish, barcha zamonlarda ilg'or ziyolilar, mutafakkir zotlarni o'ylantirib kelgan.

¹ Raxmatulloh Nosir. Soz bilan suhbat. Toshkent „Fan” nashryoti. 2007. 14-bet.

Bunday misollarni o‘nlab, yuzlab keltirib o‘tishimiz mumkin. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, mumtoz musiqamizga bo‘lgan qiziqish va izlanish hali hanuz davom etmoqda. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, mumtoz musiqamiz ya’ni maqomlarimizni o‘rganish, tahlil qilish asnosida shuni aytish joizki, ashulalarga mos she’r o‘lchovlarining ruknlari yoki ulardagi bo‘g‘inlarning uzun-qisqaligi kuylarning ritmik holati, uzun bo‘g‘inlar va bir necha uzun-qisqa notalar hamda kuy bilan she’r matni shaklan mos bo‘lishi ham katta ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, maqom va aruz ya’ni she’riyat bir butun tushuncha bu haqda yuqorida keltirib o‘tildi. Demak, har qanday mumtoz musiqa, maqom ijrochisi va shu soha vakillari aruz tizimini ham yetarlicha o‘rganishi maqsadga muvofiq, bu orqali haqiqiy maqom ilmini mukammal ustasi bo‘lishdek ulug‘ darajaga yetishadi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Rajabov. I. Maqomlar. Toshkent 2006
2. Raxmatulloh Nosir. Soz bilan suhbat. Toshkent „Fan“ nashryoti. 2007;
3. “Alisher Navoiy va Musiqa” mavzuidagi ilmiy konfrensiya materiallari (18-fevral 2011 y) Toshkent „MUMTOZ SOZ“ 2011;
4. To‘ychiyev.U. O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi. Toshkent O‘zbekiston SSR „Fan“ nashryoti 1985. 208-bet.